TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	



IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Kunduzova Kumrixon Ibragimovna

Farg'ona davlat texnika universiteti
Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti, i.f.n.

E-mail: k.kunduzova@ferpi.uz,

ORCID: 0000-0001-7697-2074

Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti
Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrası assistenti

E-mail: asadbek.jurayev@fstu.uz

ORCID: 0009-0009-1146-5093

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan izchil foydalanishning natijalari bo'yicha ilmiy mulohazalar va tadqiqot xulosalari umumlashtirilgan. Raqamli iqtisodiyot deganda raqamli texnologiyalar, jumladan internet, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash va blokcheyn asosida boshqariladigan iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, raqamli iqtisodiyot biznes, moliya va jamiyat kelajagini shakllantirmoqda. Innovatsiyalarni joriy etish va u bilan bog'liq muammolarni hal qilish barqaror raqamli transformatsiyaning muhim omili hisoblanadi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot so'nggi yillarda hukumat tashabbuslari, internet qamrovining kengayishi hamda fintech va elektron tijorat sektorlarining rivojlanishi ta'sirida jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Davlat tomonidan texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali kuchli raqamli iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Agar infratuzilma, ta'lim va normativ-huquqiy baza takomillashtirilsa, mamlakat mintaqaviy raqamli markazga aylanish salohiyatiga ega.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, sanoat, Sanoat 4.0, ishlab chiqarish, bozor, IoT, Big Data, cloud computing, raqamli texnologiyalar, internet, sun'iy intellekt, blokcheyn, kiberxavfsizlik, fintech, kichik biznes, buxgalteriya.

Abstract. This article summarizes research findings and theoretical considerations regarding the consistent use of digital technologies in the economy. The digital economy refers to economic activities managed through digital technologies such as the internet, artificial intelligence, cloud computing, and blockchain. As technologies continue to evolve, the digital economy is shaping the future of business, finance, and society. The adoption of innovations and the resolution of associated challenges are key factors for sustainable digital transformation. In recent years, the digital economy in the country has been rapidly developing due to government initiatives, expanding internet penetration, and the growth of fintech and e-commerce sectors. Government support for technological advancement plays a crucial role in building a strong digital economy. With further improvements in infrastructure, education, and regulatory frameworks, the country has the potential to become a regional digital hub.

Key words: economy, digital economy, digitalization, industry, Industry 4.0, manufacturing, market, IoT, Big Data, cloud computing, digital technologies, internet, artificial intelligence, blockchain, cybersecurity, fintech, small business, accounting.

Аннотация. В данной статье обобщены научные выводы и результаты исследований по вопросам последовательного использования цифровых технологий в экономике. Под цифровой экономикой понимается экономическая деятельность, управляемая с использованием цифровых технологий, включая интернет, искусственный интеллект, облачные вычисления и блокчейн. По мере развития технологий цифровая экономика формирует будущее бизнеса, финансов и общества. Внедрение инноваций и решение сопутствующих проблем являются ключевыми



факторами устойчивой цифровой трансформации. В последние годы в стране наблюдается стремительное развитие цифровой экономики под влиянием государственных инициатив, расширения интернет-покрытия, а также роста сектора fintech и электронной коммерции. Поддержка технологий со стороны государства способствует формированию устойчивой цифровой экономики. При дальнейшем совершенствовании инфраструктуры, образования и нормативно-правовой базы страна имеет потенциал стать региональным цифровым хабом.

Ключевые слова: экономика, цифровая экономика, цифровизация, промышленность, Индустрия 4.0, производство, рынок, IoT, Big Data, облачные вычисления, цифровые технологии, интернет, искусственный интеллект, блокчейн, кибербезопасность, fintech, малый бизнес, бухгалтерия.

KIRISH

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Har oyda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha rejalashtirilgan loyihalar hamda chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan hisobotlari tinglanadi va ularning javobgarligi masalasi ko'rib chiqiladi.

Raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish to'g'risida qarorlar qabul qilinadi, shuningdek, zarur hollarda hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda "yo'l xarita"lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

Strategiya O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi. Shuningdek, u BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aholining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda¹.

1-jadval². "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Joriy holati	Yillar kesimidagi maqsadlar		
				2022	2025	2030
1	Respublika bo'ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog'ining uzunligi	ming km	41	70	120	250
2	Respublika hududlarining yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'i bilan qamrov darajasi	foiz	67	74	85	100
3	Ijtimoiy obyektlarning yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	45	100	100	100
4	Uy xo'jaliklarining keng polosali Internet jahon axborot tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	67	74	85	100
5	Aholi punktlarining keng polosali mobil aloqa tarmog'i bilan qamrov darajasi	foiz	78	100	100	100
6	Elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"ning samaradorlik ko'rsatkichi	ball (0-1 oralig'ida)	0,66	0,70	0,75	0,86
7	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlariga nisbatan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatlarining ulushi	foiz	34	60	70	90
8	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali elektron davlat xizmatlariga nisbatan mobil qurilmalar yordamida foydalanish imkoniyatiga ega elektron davlat xizmatlari ulushi	foiz	5	30	42	60
9	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan tranzaksiyaviy xizmatlar ulushi	foiz	25	45	60	75
10	Korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar ulushi	foiz	20	40	65	100

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957> Muallif ishlanmasi



11	Onlayn bank xizmatlari foydalanuvchilari soni (yuridik va jismoniy shaxslar)	mln nafar	10	15	17	20
12	Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining inkubatsiya va akseleratsiya dasturlariga kiritilgan startap-loyihalar soni	dona	50	250	700	2 300
13	Axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga qabul kvotalar soni	ming	7	12	15	20

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda kompaniyalarning Sanoat 4.0 ga o'tishi dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda. Kichik biznes faoliyatini raqamlashtirish ham shular jumlasidandir. Mazkur tadqiqotda kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati, unga qo'yiladigan talablar va chegaralar, ishlab chiqarish korxonalari uchun Sanoat 4.0 dasturi doirasida axborot texnologiyalarining o'rni, afzalliklari hamda ishlab chiqarishda qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, turli mamlakatlarda kichik va o'rta korxonalar o'lchamini belgilash mezonlari o'rganilgan. Bu boradagi qator yetakchi mutaxassislarining ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik tarmog'ida "Sanoat 4.0" dasturini amalga oshirish masalalari o'rganilib, muammolar aniqlangan hamda ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [1].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning barqaror rivojlanishi yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu sharoitda raqamli transformatsiya korxonalar uchun barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim strategik tanlov hisoblanadi. Shuning uchun korxonalar barqaror rivojlanish modellarini ilgari surishlari zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, resurslardan foydalanishni yaxshilash, korxonalarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va ichki boshqaruv sifatini oshirish ularning barqarorligini ta'minlaydi [2].

Raqamli texnologiyalar nafaqat korxonalar uchun texnologik innovatsiyalarni ta'minlaydi, balki ichki boshqaruv uchun nazariy asos va amaliy yechimlarni ham taklif etadi. Shuni ta'kidlash mumkinki, raqamli transformatsiya nafaqat korxonaning ichki boshqaruvi va innovatsion salohiyatini kuchaytiradi, balki uning tashqi muhitdagi murakkab sharoitlarga moslashuvchanligini ham oshiradi. Umuman olganda, korxonaning raqamli transformatsiyasi innovatsiyalarni rivojlantirish va barqaror o'sishga xizmat qiladi [3].

Globallashtirish sharoitida tovarlar va xizmatlar xalqaro savdosining murakkablashuvi bilan birga, raqamli iqtisodiyotda ko'p millatli korxonalarni (MNE) soliqqa tortish muammosi ham ortib bormoqda. Ushbu hisobot Markaziy Janubga a'zo davlatlar hamda raqamlashtirilgan MNElarning aksariyati shtab-kvartirasi joylashgan davlatlar o'rtasidagi mavjud ikki tomonlama soliq shartnomalarini tahlil qiladi. Bunda MNElar doirasini aniqlash uchun yillik 750 million yevro aylanma mezonidan foydalaniladi. Tahlil Markaziy Janub mamlakatlarida soliqqa tortish huquqlarining taqsimlanishi hamda BMT Model Soliq konvensiyasining 12B-moddasini joriy etish orqali raqamli iqtisodiyotda samarali soliqqa tortishni ta'minlash imkoniyatlarini yoritadi. Shuningdek, tadqiqot "zaif" soliq shartnomalarini aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi hamda "kompyuter dasturiy ta'minoti" tushunchasining soliq hujjatlaridagi talqinini tahlil qiladi [4].

Raqamli iqtisodiyot, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda jadal rivojlanmoqda. Biroq uning ahamiyati va ko'rsatkichlari hali ham cheklangan va bahsli hisoblanadi. Mazkur maqola raqamli iqtisodiyot tushunchasini aniqlashtirish va uning qamrovini baholashga qaratilgan. Unda uchta asosiy yo'nalish ajratib ko'rsatiladi: birinchisi — "raqamli sektor", ya'ni asosiy raqamli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi IT/AKT sohasi; ikkinchisi — raqamli texnologiyalar asosidagi biznes modellarga ega "raqamli iqtisodiyot"; uchinchisi — iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida AKTdan foydalanish bilan bog'liq keng qamrovli faoliyat. Tahlillarga ko'ra, mazkur tushunchadagi raqamli iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotning taxminan 5 foizini va global bandlikning 3 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, global Shimol asosiy ulushni egallasa-da, eng yuqori o'sish sur'atlari global Janub mamlakatlarida kuzatilmoqda. Shu sababli, rivojlanayotgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlari va cheklovlarini chuqur o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolada dolzarb hisoblangan masalalarni tadqiq etish, ularni atroflicha o'rganish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, kuzatish va qiyoslash, Sanoat 4.0 talqini, uning harakatlantiruvchi kuchlari va to'siqlarini o'rganish asosida tahlil natijalarini tizimlashtirib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Asoslangan nazariya (grounded theory) ma'lum bir hodisa to'g'risida har tomonlama tushuntirishlar ishlab chiqishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu usul odatda muntazam ravishda to'plangan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida nazariyalarni yaratish uchun qo'llaniladi. Strauss va Korbin fikriga ko'ra, "asoslangan



nazariyani o'rganishdagi maqsad — hodisalarni tadqiqot jarayonining o'zida shakllanib boradigan nazariy asoslar orqali tushuntirishdir".

Tarkibiy (konstruktiv) nazariya esa tushunchalarni aniqlash va ma'lumotlarni sifatli yig'ish asosida nazariyani yaratish uchun tizimli metodlardan foydalanadi. Asoslangan nazariya prinsiplari asosida tadqiqot davomida nazariy to'yinganlik darajasiga erishish maqsadida ma'lumotlar takroriy ravishda yig'ildi va tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish orqali iqtisodiy faoliyatni tashkil etuvchi tizimdir. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Raqamli iqtisodiyotda axborot va ma'lumotlar iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylangan. Kompaniyalar va tashkilotlar ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va undan foydalanish orqali o'z faoliyatini optimallashtiradi.

Raqamli texnologiyalar — internet, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili (Big Data), bulutli hisoblash tizimlari va blokcheyn kabi vositalar iqtisodiyotning barcha sohalariga integratsiyalashgan. Ushbu texnologiyalar ish samaradorligini oshiradi, yangi biznes modellarini yaratadi va ishlab chiqarish jarayonlarini o'zgartiradi.

2-jadval³. Raqamli iqtisodiyotning hususiyatlari

Axborot va ma'lumotning markaziy roli	Tarmoqlar va platformalar asosida biznes
Texnologiyaning integratsiyasi	Avtomatlashtirish va robotlashtirish
Yangi biznes modellari va innovatsiyalar	Yangi ish joylari va kasblar
Global aloqalar va tarmoq effekti	Ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar
Raqqaqarorlik va maxfiylik masalalari	Mobil texnologiyalar va IoT (Internet of Things)

Raqamli iqtisodiyotda an'anaviy biznes modellaridan farqli ravishda yangi, innovatsion modellarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Masalan, "sharing economy" (ulashish iqtisodiyoti) yoki "onlayn savdo" kabi yangi yo'nalishlar rivojlanmoqda.

Internet va raqamli texnologiyalar orqali davlatlar va kompaniyalar o'rtasidagi chegaralar deyarli yo'qoladi. Global tarmoq effekti esa xizmat yoki mahsulotlarni internet orqali butun dunyo bo'ylab keng tarqatish imkonini yaratadi. Bu esa xalqaro savdo va xizmatlar hajmining oshishiga olib keladi.

Raqamli iqtisodiyotda axborot va ma'lumotlarning xavfsizligi hamda maxfiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni himoya qilish va shaxsiy ma'lumotlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi.

Raqamli iqtisodiyotda ko'plab kompaniyalar platforma yoki tarmoq asosida faoliyat yuritadi. Masalan, Amazon, Uber va Facebook kabi kompaniyalar raqamli platformalar orqali xizmatlar ko'rsatadi hamda foydalanuvchilarni o'zaro bog'laydi.

Shuningdek, ko'plab sohalarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari avtomatlashtirilgan. Sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlar inson mehnatini qisqartirib, samaradorlikni oshiradi.

Raqamli iqtisodiyot yangi kasblar va ish o'rinlarini yaratadi. Jumladan, ma'lumot tahlilchilari, kiberxavfsizlik mutaxassislari va sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar kabi kasblarga talab ortib bormoqda.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalarni o'zgartiradi. Internetning keng tarqalishi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ko'plab sohalarida ish o'rinlarini qayta shakllantirib, yangi imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli iqtisodiyotda mobil texnologiyalar va "Internet of Things" (IoT) tizimlari ham muhim o'rin tutadi. Smartfonlar, "aqlli" uy jihozlari, avtomobillar va boshqa qurilmalar o'rtasidagi integratsiya yangi innovatsion yechimlarni yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotning ushbu xususiyatlari, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi iqtisodiy o'sish manbalarini shakllantirish va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

3 Muallif ishlanmasi.



2-jadval⁴. Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha) o'lchov birlik

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024
Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat	518	634	724	840	630
Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish	227	293	353	400	305
Boshqa dasturiy ta'minotlarni chiqarish	248	315	352	425	494
Kompyuter uskunalarini boshqarish bo'yicha faoliyat	149	198	243	290	269
Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari	309	387	461	536	583

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, boshqa toifalarga kiritilmagan axborot xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat 2020-yilda 518 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 630 birlik bilan yakunlangan. Ushbu turdagi faoliyat odatda raqamli texnologiyalar, internet va axborot resurslarini boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ayni paytda ko'plab yirik va kichik bizneslar uchun muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, u tez o'zgaruvchan texnologik muhitga moslashish, yangi imkoniyatlar yaratish va mavjud resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Kino, videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish 2020-yilda 277 birlikni, 2024-yilda esa 305 birlikni tashkil etgan. Ushbu faoliyat ijodiy va texnologik jihatdan murakkab jarayon bo'lib, har bir bosqichda malakali mutaxassislar ishtirokini talab qiladi. Mazkur soha orqali ommaviy axborot vositalari va madaniyatga sezilarli ta'sir ko'rsatiladi. Har bir faoliyat turining o'ziga xos professional jamoalari, texnik vositalari hamda bozor talablariga moslashgan ishlab chiqarish tizimlari mavjud.

Boshqa dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish sohasi 2020-yilda 248 birlikni, 2024-yilda esa 494 birlikni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich keng va turli sohalarda qo'llaniladigan dasturiy mahsulotlarni yaratish jarayonini qamrab oladi. Mazkur jarayon ilg'or texnologiyalar, tizimlar va metodologiyalarni o'z ichiga oladi. Har bir dasturiy ta'minot turining o'ziga xos talablari va maqsadlariga qarab, ishlab chiqish jarayonida turli yondashuvlar va vositalardan foydalaniladi.

Kompyuter uskunalarini boshqarish bo'yicha faoliyat 2020-yilda 149 birlikni tashkil etgan bo'lsa, yillar davomida o'sish kuzatilib, 2024-yilda 269 birlikka yetgan. Ushbu faoliyatni samarali amalga oshirish uchun tizim administratorlari, IT mutaxassislari va texnik xodimlar yirik hamda kichik tizimlarni boshqarish jarayonida texnik, tashkiliy va xavfsizlik bilan bog'liq masalalarni hal etishlari zarur. Bu sohada tizimlarning barqaror ishlashi, xavfsizligi va samaradorligi ta'minlanadi, shuningdek, foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va tizimlarni modernizatsiya qilish ishlari olib boriladi.

Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari 2020-yilda 309 birlikni, 2024-yilda esa 583 birlikni tashkil etgan. Ushbu xizmatlar tashkilotlarga zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llashda, tizimlarni modernizatsiya qilishda, xavfsizlikni ta'minlashda hamda umumiy faoliyat samaradorligini oshirishda yordam beradi. Natijada kompaniyalar yangi texnologiyalarni joriy etish, IT infratuzilmasini takomillashtirish va axborot xavfsizligini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki boshqaruv, moliya, ta'lim va xizmat ko'rsatish sohalarida ham yangi imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar mamlakatda raqamli infratuzilmaning izchil rivojlanayotgani, internet tarmog'i qamrovi kengayib borayotgani hamda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida sezilarli natijalarga erishilayotganini ko'rsatdi.

Blokcheyn, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va IoT kabi raqamli yechimlarning milliy iqtisodiyot tarmoqlarida joriy etilishi natijasida shaffoflik, samaradorlik va raqobatbardoshlik darajasi ortmoqda. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlikni mustahkamlash, malakali IT-kadrlar tayyorlash hamda axborot almashinuvining xavfsiz mexanizmlarini ishlab chiqish iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylanmoqda.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonida tuzilgan. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot> https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3253.pdf



Raqamli infratuzilmani kengaytirish: optik tolali tarmoqlar, yuqori tezlikdagi internet va mobil aloqa qamrovini yanada oshirish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli xizmatlar imkoniyatlarini kengaytirish.

Blokcheyn texnologiyasini amaliyotga joriy etish: davlat boshqaruvi, soliq tizimi, bank sektori va sug'urta xizmatlarida blokcheyn asosida ishlovchi shaffof platformalarni yaratish.

Kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlash: davlat va xususiy sektor uchun yagona milliy kiberxavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish hamda malakali mutaxassislar tayyorlash dasturlarini kengaytirish.

Kadrlar salohiyatini oshirish: oliy ta'lim muassasalarida raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga ixtisoslashgan yo'nalishlarni rivojlantirish.

Kichik biznesni raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash: soliq yengilliklari, grant dasturlari va raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha treninglar orqali tadbirkorlikni raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish.

Raqamli iqtisodiyotning huquqiy bazasini takomillashtirish: yangi texnologiyalar bilan bog'liq qonunchilikni zamonaviy talablar asosida yangilash.

Ilmiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlikni kengaytirish: raqamli transformatsiya bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish, qo'shma loyihalar tashkil etish va milliy modelni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Raxmonov, N., Jo'rayev, A. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish tahlili // Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2022. – T. 1, № 5. – B. 101–109.
2. Baierle, I. C., Siluk, J. C. M., Gerhardt, V. J., de Freitas Michelin, C., Junior, Á. L. N., Nara, E. O. B. Worldwide innovation and technology environments: Research and future trends involving open innovation // Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2021. – Vol. 7, No. 4. – Art. 229.
3. Bharadwaj, A., El Sawy, O. A., Pavlou, P. A., Venkatraman, N. V. Digital business strategy: Toward a next generation of insights // MIS Quarterly. – 2013. – Vol. 37, No. 2. – P. 471–482.
4. Sose, A., Tascon, N., Viemose, A. Digital economy. – 2023.
5. Bukht, R., Heeks, R. Defining, conceptualising and measuring the digital economy // Development Informatics Working Paper. – 2017. – No. 68.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
